



TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZANING BARQARORLIGI ORQALI KREDITLARNING SAMARADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

PhD Melikov Otabek Maxmadaminovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID:0009-0006-1518-4107

o.melikov@dtpi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining depozit va kreditlari YIM ga nisbatan tendensiyasi va maqsadli ko'rsatkichlar bo'yicha amaldagi holati tahlil qilingan. Tijorat banklari balansidagi depozit va kredit ko'rsatkichlari statistik va qiyosiy tahlil qilinib, ularning mutanosibligini ta'minlash orqali bank riskini minimallashtirish bo'yicha ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, omonat, depozit, kredit, bank aktiv va passiv operatsiyalari, foiz stavkalari.

ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ КРЕДИТОВАНИЯ ЗА СЧЕТ УСТОЙЧИВОСТИ ДЕПОЗИТНОЙ БАЗЫ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

PhD Меликов Отабек Махмадаминович

Денауский институт предпринимательства и педагогики

Аннотация. В данной статье проанализированы тенденции и текущее состояние депозитов и кредитов коммерческих банков по отношению к ВВП на основе целевых показателей. Проведен статистический и сравнительный анализ показателей депозитов и кредитов в балансе коммерческих банков, а также сформулированы научные предложения и практические рекомендации по минимизации банковских рисков за счет обеспечения их сбалансированности.

Ключевые слова: коммерческие банки, сбережения, депозиты, кредиты, активные и пассивные операции банка, процентные ставки.

WAYS TO ENSURING THE EFFICIENCY OF LOANS THROUGH THE STABILITY OF THE DEPOSIT BASE IN COMMERCIAL BANKS

PhD Melikov Otabek Maxmadaminovich

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. This article analyzes the trends and current status of commercial banks' deposits and loans relative to GDP, based on targeted indicators. The statistical and comparative analysis of deposit and loan indicators in the commercial banks' balance sheets is conducted, and scientific proposals along with practical recommendations are formulated to minimize bank risks by ensuring their proportionality.

Keywords: commercial banks, savings, deposits, loans, bank asset and liability operations, interest rates.

Kirish.

Tijorat banklarining faoliyati birinchi navbatda depozitlarni jalb qilish va kreditlar berishga qaratilgan. Depozitlarni jalb qilish bankning passiv faoliyati, kreditlash esa aktiv operatsiya sifatida qaraladi. Kreditlash o'z navbatida, jalb qilingan depozitlar hajmiga bevosita bog'liq bo'lib bankning foydasi shakllanadi va banklarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Shu bilan birga bank kreditlari yangi loyixalarni moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib, YaIM ning o'sishiga va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga o'z hissasini qo'shadi.

Adabiyotlar sharhi.

Prof. Abdullaevaning (2017) fikricha bankning asosiy vazifalaridan biri bo'sh pul mablag'larini mumkin qadar ko'proq jalb qilish va ularni foyda keltiruvchi aktivlarga joylashtirishdan iborat. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga, resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosati ham ta'sir qiladi.

Berdiyarovning (2017) fikricha tijorat banklari depozitlari va kreditlari miqdorining o'sishi tijorat banklari foiz siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Bank tomonidan depozitlar bo'yicha o'rnatiladigan foiz stavkalari, shuningdek, kreditlar bo'yicha undirish uchun belgilangan foiz stavkalari bankning depozit va kredit operatsiyalari hajmining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tagirbekovanning (2004) xulosasiga ko'ra, tijorat banki faoliyatining moliyaviy natijasi foiz marjasining miqdori bilan belgilanadi. Foiz marjasining miqdori esa, bankning kredit-depozit operatsiyalarining natijasida shakllanadi.

Azlarova va Abduraxmanovalarning (2019) fikricha, Aktivlar va passivlarni samarali boshqarish quyidagilarga erishishni ta'minlaydi:

- berilgan tavakkalchilik darajasida aktivlarning maksimal daromadlilik darajasini ta'minlaydigan optimal tuzilmasini;
- passivlarning moliyaviy ta'minot manbalarini jalb etish bo'yicha xarajatlarni minimallashtirishni ta'minlaydigan optimal tuzilmasini;
- marjaning, ya'ni aktivlar daromadlilik va passivlar xarajatliligi o'rtasidagi ijobiy farqning, maksimal qiymatini ta'minlaydigan aktivlar va passivlar tuzilmasini.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklarining depozit operatsiyalari ularning resurs bazasida muhim o'rin tutadi. Depozit bazasi qancha katta va barqaror bo'lsa, banklar shunchalik keng ko'lamda aktiv operatsiyalarni amalga oshira oladi. Depozitlar tijorat banklari resurslari tarkibida asosiy o'rin egallagani bois, ular kredit operatsiyalarini moliyalashtirishdagi eng asosiy manbalardan biri hisoblanad (Melikov, 2025).

Depozit bazaning barqarorligi orqali tijorat banklari kreditlarining samaradorligini ta'minlashdagi roli quyidagi namoyon bo'ladi:

- kreditlarning muddatlari muddatli depozitlarning muddatlariga mos kelishi;
- depozitlar miqdori kreditlarga bo'lgan talabni qondirish darajasida bo'lishi;
- kreditlarning foiz stavkalari bilan depozitlarning foiz stavkalari o'rtasida mutanosiblikning mavjudligi.


Kreditlarning muddatlarini depozitlarning muddatlaridan katta bo'lishi bankda transformatsiya riskini chuqurlashishiga olib keladi. Bu esa, bank kredit operatsiyalarining samaradorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Kreditlarga bo'lgan talabni qondirish birinchi navbatda tijorat banklari depozitlarining etarli darajada bo'lishini taqozo etadi. Agar bankning depozit bazasi etarli bo'lmasa, u holda, kreditlarga bo'lgan talabni qondirishning amalda iloji bo'lmaydi. Shu sababli, tijorat banklari depozit bazaning etarililigi ta'minlash masalasiga kreditlarga bo'lgan talabni qondirishning birlamchi sharti sifatida qarashlari lozim.

Tijorat banklari kreditlash amaliyotining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan biri – bu kreditlardan olinadigan daromadlarning barqarorligi hisoblanadi. O'z navbatida, kreditlardan olinadigan daromadlarning barqarorligi kreditlarning foiz stavkalari bilan depozitlarning foiz stavkalari o'rtasidagi mutanosiblikka bog'liq.

2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida "Moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, faqatgina bozor talablari asosida kreditlash, banklarning davlat resurslariga bo'lgan qaramligini kamaytirish, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lmagan funksiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish" bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarida belgilab berilgan (Farmon, 2020).


Mazkur strategiyaning uchinchi ilovasida maqsadli ko'rsatkichlarida banklarning depozitlar va kreditlar hajmini mutanosib o'sib borishi bo'yicha rejalashtirilgan. Bunga ko'ra 2025 yil yakunlariga ko'ra bank depozitlari YaIM ga nisbati 25-27 foizga etkazilishi va bank aktivlarining YaIMga nisbati 55 foizdan oshirilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari depozitlarning bank majburiyalariga nisbati 50-60 foiz, hususiy (davlat ulushi ishtirok etmagan) bank aktivlarining bank sektori aktivlari umumiy hajmidagi ulushi 60 foizga etkazilishi rejalashtirilgan.



1-rasm. Banklarning aktivlari, majburiyatlari, kreditlari va depozitlarining YaIM ga nisbati (foizda)

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.


1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki bank depozitlari YaIM ga nisbati o'sish tendensiyasiga ega bo'lib 2020-2024 yillar davomida 4.04 foizga ortgan bo'lsada 25-27 foizlik ko'rsatkichlarga erishishda muammolar mavjud. Bank aktivlarining YaIMga nisbati maqsadli ko'rsatkichlar bo'yicha 55 foizdan oshirilishi ko'rsatilgan bo'lsada pasayish tendensiyasiga ega bo'lib 2024 yilda 42.9 foizni tashkil etgan. Bank depozitlarini va kreditlarini besh yillik davr mobaynidagi tendsiyalarida nomutanosiblik mavjud.



2-rasm. Banklarning kredit va qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni jami aktivlarga nisbati hamda bank depozitlarining jami majburiyatlarga nisbati (foizda)

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki bank kreditlarining jami aktivlardagi ulushi pasayish tendensiyasiga ega bulib 2020 yilda 75.7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 69.3 foizni tashkil etgan. Bu holat jami aktivlar qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarni ulushi ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Bank depozitlarining jami majburiyatlarga nisbati 2020-2024 yillar davomida 9.9 foizga ortib 47.2 foizni tashkil etgan.




3-rasm. Xususiy (davlat ulushi ishtirok etmagan) bank aktivlarining bank sektori aktivlari umumiy hajmidagi ulushi (foizda)

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Xususiy (davlat ulushi ishtirok etmagan) bank aktivlarining bank sektori aktivlari umumiy hajmidagi ulushi (3-rasm) 2020-2024 yillar davomida 19.46 foizga ortgan bo'lsada 60 foizlik maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda muammolar mavjudligini ko'rsatadi.


Bank depozit va kreditlari foizlarining mutanosibligini tahlil qilishda kreditlardan olingan foizli daromadlarni jami kreditlarga nisbati hamda muddatli depozitlar uchun qilingan harajatlarni jami muddatli depozitlarga nisbatida olamiz.



4-rasm. «O'zmilliybank» AJ ning o'rtacha kredit va depozitlari foiz stavkasi hamda muddatli depozitlarining jami kredit va lizinlarga nisbati

Manba: «O'zmilliybank» AJ ning hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Kredit va lizinglar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 2020 yilda 6.8 foiz bo'lib, 2024 yilda 9.5 foizni tashkil etgan. Kreditlarning o'rtacha foiz stavkasi muddatli depozitlarning o'rtacha foiz stavkasidan kam bo'lgan. Muddatli depozitlarning o'rtacha foiz stavkasi 2020 yilda 8.9 foiz bo'lib 2024 yilda 10.9 foizni tashkil etgan. Muddatli depozitlarning o'rtacha foiz stavkasi bu davrda nobarqaror tendensiyaga ega. Jami kredit va lizinglar hajmida muddatli depozitlarning ulushi o'sish tendensiyasida bo'lsada, ammo 2024 yilda 20.7 foizni tashkil etib salmog'i kamligicha qolmoqda.



5-rasm. «Hamkorbank» ATB o'rtacha kredit va muddatli depozitlari foiz stavkasi hamda muddatli depozitlarining jami kredit va lizinlarga nisbati

Manba: Hamkorbank ATB ning hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

«Hamkorbank» ATB ning Kredit va depozitlarning foiz stavkalari mutanosib tendensiyada ekanligini ko'rsatadi (5-rasm). Shunday bo'lsada depozitlar bilan taminlanganlik darajasini nobarqaror tendensiyada ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Tijorat banklarining daromad bazasiga baho berishda sof foizli marja ko'rsatkichi muhim o'rin tutadi. Sof foizli marja bank aktivlari miqdoriga teskari proporsional bo'lib, kreditlar va depozitlar bozoridagi yuqori darajadagi raqobat uning darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

$$M_{fact} = \frac{D_p - C_p}{A} * 100 \%$$

bu erda:

M_{fact} - amaldagi foiz marja;

D_p - foizli daromad;

C_p - foizli xarajat.

1-jadval

«O'zmilliybank» AJ va Hamkorbank ATB larning sof foizli marja ko'rsatkichi (foizda)

Bank nomi	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
«O'zmilliybank» AJ	2,3	3,3	3,2	4,5	4,2
Hamkorbank ATB	6,1	6,4	6,3	6,7	7,8

Manba: «O'zmilliybank» AJ va Hamkorbank ATB larning hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan yuqoridagi sof foizli marja ko'rsatkichi uchun 4.5 foiz me'yoriy darajalar tavsiya etilgan. Tahlil qilgan davr mobaynida ikkala bankda ham sof foizli marja ko'rsatkichi tendentsiyasi ijobiy bo'lsada, biroq «O'zmilliybank» AJ da Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan tavsiya etilgan me'yoriy darajadan past ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Tahlil natijalari bo'yicha quyidagi mammolar aniqlandi:

2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi maqsadli korsatkichlari bo'yicha:

Bank aktivlarining YAIMga nisbati 55 foiz etkazilishi rejalashtirilgan bo'lsada, 2022-2024 yillar mobaynida pasayish tendensiyasiga ega bo'lib 2024 yilda 52.9 foizni tashkil etgan

Bank depozitlari YaIM ga nisbati 25-27 foizga etkazilishi rejalashtirilgan bo'lsada 2024 yilda 21.22 foizni tashkil etgan;

Xususiy (davlat ulushi ishtirok etmagan) banklar aktivlarining bank sektori aktivlari umumiy hajmidagi ulushi 60 foiz rejalashtirilgan bo'lsada 2024 yilda 34.59 foizni tashkil etgan:

Depozitlarning banklar majburiyatlariga nisbati 50-60 foizga etkazilishi rejalashtirilgan bo'lsada, 2024 yilda 47.2 foizni tashkil etgan

Bundan tashqari «O'zmilliybank» AJ da kreditlat va muddatli depozitlar foizlarining mutanosibliigi ta'minlanmagan, muddatli depozitlarning o'rtacha foizidan kredit va lizinglarning o'rtacha foizi past;

«O'zmilliybank» AJ va Hamkorbank ATB larda kreditlarning barqaror resurs hisoblangan muddatli depozitlari bilan ta'minlanish darajasi past va nobarqaror tendensiyaga ega;

«O'zmilliybank» AJ da sof foizli marja ko'rsatkichi Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan tavsiya etilgan 4.5 foiz me'yoriy darajadan kam ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Kreditlashda asosan mikroqarzlar berilishida mijoz va bank o'rtasida 40-50 atrofida shartnomalar imzolansada mijoz tomonida kechiktirilgan kunlar hisobiga shartnomalarda peniya va ortiqcha foizlar evaziga kredit foizi va peniyasi bilan qo'shib hisoblaganda 200-300 foizlik kreditlash kreditlash amaliyotlari kuzatilmoqda. Natijada o'z vaqtida to'lashga imkoni etmagan jismoniy shaxslar tomonidan umuman kredit qaytara olmaslik riski yuzaga kelmoqda.

Markaziy bankning "Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning qarz yukini tartibga solish to'g'risidagi" Nizomning 11-bandida bu holatlar bo'yicha cheklovlar qo'yilgan.

Xulosa va takliflar.

Muddatli depozitlarning majburiyatlar hajmidagi ulushini oshirish. Bunda aholining omonatlari jozibadorligini yanada oshirish, aksiya va bonusli tizimlar tashkil etish, sun'iy intellektdan samarali foydalangan holda shaxsiylashtirilgan (mijozlar tomonidan omonat shartlarni ma'lum chegaralar asosida o'z ehtiyoji uchun moslash) omonatlar taklif etish;

Bank risklarini kamaytirish maqsadida bank muddatli depozitlarning foizi bilan kreditlarning foizi o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash, shu jumladan banklarning deposit siyosati va kredit siyosatini ishlab chiqishda muvofiqlikni ta'minlash ;

2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasidagi maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha har bir bank bo'yicha zarur chora-tadbirlarni qo'llash.

Tijorat banklarning asosiy xizmatlari hisoblangan depozit va kredit xizmatlari mutanosibligi ya'ni, miqdori, foizi va muddatlari bo'yicha muvofiqligi risk darajasining pasayishiga, rentabillik ko'rsatkichlarining oshishiga va natijada bank tizimining samarali faoliyat yuritilishiga olib keladi.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Abdullayeva Sh.Z. (2017) Bank ishi. Darslik/–T.: "Iqtisod-Moliya", 103-b.

Berdiyarov B. (2017) Tijorat banklari foiz siyosatining likvidlikka ta'siri. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr.

Тагирбекова К.Р. (2004). Организация деятельности коммерческого банка. – Москва: Весь Мир, – 848 с.

Azlarova A.A., Abduraxmanova M.M. (2019). Tijorat banklarining resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, -311 b.

Melikov O. (2025). Tijorat banklari depozit xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot, 3(2), 7–12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14872169>

Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.